XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2022 - yil 21 - yanvar VI-42-15-8-0-K/22 Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash yuzasidan viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari A.Anvarovning bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari A.Anvarovning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyentni tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) va viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatda bo‘lishini;

binolar va inshootlarning 1 kv.m uchun mutloq miqdor viloyat markazlarida bir million besh yuz ming so‘m minimal qiymatda bo‘lishi yuzasidan Surxondaryo televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlar amalga oshirishi hamda televideniye orqali ommaga taqdim etilishini;

yuridik shaxslar tomonidan mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini;

yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida har chorak yakunida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Surxondaryo viloyatidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyentlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Ishonch” televideniyesi (A.Qodirov), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, (shahar) tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Choriyev A. R.**

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 21 январдаги
VI-42-15-8-0-K/22-сон қарорига
1-илова

Surxondaryo viloyatidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyentlar

T/r	**Hudud nomi**	**Qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori**
1	Angor tumani	1,0
2	Oltinsoy tumani	1,0
3	Boysun tumani	1,0
4	Muzrobod tumani	1,0
5	Denov tumani	1,0
6	Jarqo‘rg‘on tumani	1,0
7	Qumqo‘rg‘on tumani	1,0
8	Qiziriq tumani	1,0
9	Sariosiyo tumani	1,0
10	Termiz tumani	1,0
11	Sherobod tumani	1,0
12	Sho‘rchi tumani	1,0
13	Uzun tumani	1,0
14	Bandixon tumani	1,0